

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11068708>

## MODAL SO‘ZLAR ISHTIROKIDA MODALLIK MA’NOSINI IFODALASH

**Sultanova D.A**

Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi.,  
email: [durdona-sultanova@mail.ru](mailto:durdona-sultanova@mail.ru)

**Dusmetova S.M**

Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi.,  
email: [dusmetovasaodatjon@gmail.com](mailto:dusmetovasaodatjon@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillardagi ifikrlarni ifodalovchi modallar va bularning voqelikka munosabatini aniq, tasdiq va taxmin yo‘li bilan bildirishi, O‘zbek tilida modallashgan fe‘llar kesim vazifasida kelishi, o‘zbek tilidagi modal so‘zlar ingliz tilidagi modal so‘zlarga ko‘p ma‘nolik, sinonimiya xususiyatlari bilan mos kelishi haqida aytib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Modal, subyektiv baho, semantic guruh, tasdiq va taxmin, kirish so‘z, sinonimiya xususiyatlar, klassifikatsiya.*

## EXPRESSING THE MEANING OF MODALITY WITH THE PARTICIPATION OF MODAL WORDS

### ABSTRACT

*This article describes modals expressing thoughts in English and Uzbek and their relationship to reality in a clear, affirmative and predictable way, modal verbs in Uzbek are participles, modal words in Uzbek have multiple meanings and synonyms to modal words in English. mentioned about compatibility*

***Key words:** Modal, subjective assessment, semantic group, confirmation and assumption, introduction, synonymy, features, classification.*

## **KIRISH.**

Modal soʻzlar soʻzlovchining aytilayotgan mazmuniga boʻlgan munosabatini anglatuvchi soʻzlar. Modal soʻzlar tasdiq (darhaqiqat, haqiqatan), qatʼiylik (albatta, shubhasiz), gumon (ehtimol, shekilli) va hakazolar maʼnolarni oʻz ichiga oladi. Modal soʻzlar boshqa mustaqil soʻzlar kabi soʻz oʻzgartiruvchi va forma yasovchi elementlarga ega emas. Bogʻlovchi va koʻmakchilar singari soʻzlarning grammatik munosabatini ifodalaydi. Gapda, asosan, kirish soʻz vazifasida keladi. Ingliz va oʻzbek tilida fikrning voqelikka munosabatini ifodalash uchun xizmat qiluvchi alohida soʻzlar borki, ular har ikkala tilda ham modal maʼnolar bilan yuritiladi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.**

Modallik kategoriyasi universal, yaʼni barcha tillarga xos kategoriya boʻlib, u koʻplab tilshunos olimlarning bir necha yillardan beri diqqat markazida turuvchi asosiy masalalaridan biri boʻlib kelmoqda. Shu oʻrinda aytilish joizki, tilshunoslikda modallik kategoriyasini ilmiy nazariy tahlil qilishda turli qarashlar mavjud. Buning asosiy sababi ushbu lingvistik kategoriya har bir tilda turlicha qoʻllanish xususiyati ega boʻlib, bir-biriga mos kelmasligidadir. Masalan, tilshunoslikda koʻplab tilshunos olimlar (Sh.Balli, V.Admoni, E.Gulga, A.Bushuy, A.Bondarko, V.Panfilov, N.Shvedova, I.Raspapov, T.Lomtev, V.Vinogradov, F.Palmer, T.Alisova, G.Zolotova, R.Sibagatov, V.Gak., J.Yakubov, Oʻ.Lafasov) modallik kategoriyasining mohiyatini ochib berish bilan birga ushbu lingvistik kategoriyaning har xil til vositalari bilan ifodalanishini va shunga koʻra ular obyektiv va subyektiv turlarga ajralishini, gap va nutqda modallik eng muhim belgi ekanligini bayon qiladilar.

Modal soʻzlar fikrning voqelikka munosabatini aniq, tasdiq va taxmin yoʻli bilan bildiradi. Ingliz tilida koʻpchilik modal soʻzlar ravishdan shakllangan boʻlib, maxsus markerga (-ly) ega. Masalan: happily, unhappily. Modal soʻz vositalari bilan soʻzlovchining borliqqa (harakat, belgi, predmet, voqea, hodisalar) boʻlgan ishonchini, gumoni, voqelikni tasdiqlash yoki inkor qilish kabi munosabatlar bildiriladi. Har ikki tilda modal soʻzlar gapda kirish soʻz va bir soʻzdan tashkil topgan kirish gap boʻlib kelishi aniqlangan.

Masalan:

a) kirish soʻz: Probably the young man exclaimed, laughing (H.James).

Modal soʻzlar semantik klassifikatsiyasi.

Modal soʻzlar oʻz maʼnolari jihatdan xilma-xil boʻladi. Modal soʻzlar anglatgan maʼnolariga qarab bir-biridan farqlanadi. Ingliz tilida modal soʻzlar uchta semantik guruhga boʻlinadi. (J. Boʻranov, U.Xoshimov, X.Ismatullaev 1974, V.L.Kaushanskaya, R.L. Kaner 1963)

1) Gapda ifodalangan fikrning realligini tasdiqlovchi modal soʻzlar:

assuredly - albatta, shubhasiz, haqiqatan; actually – haqiqatda; certainly – albatta, shubhasiz; evidently – aniq, muqarrar; indeed - haqiqatan, chindan ham; naturally – tabiiy, tabiiy ravishda, albatta; no doubt – shak-shubhasiz; obviously - aniq, oydin, ravshan, yaqqol; of course - albatta, soʻzsiz; really - haqiqatan, darhaqiqat; surely – albatta, shubhasiz; undoubtedly – shubhasiz, rostdan, darhaqiqat va boshqalar.

He had certainly had a great experience. (Ibid)

«She is really benevolent»-she answered. (Ibid)

She apparently took pains to convince him that she had adapted the right system. (Ibid)

She has evidently taken a great fancy to her. (Ibid)

He was naturally a good man. (Voynich)

Ralph indeed, who had very long legs, was fond of standing and even of walking about at his work. (H.James). It was very probably this. (Ibid)

Yes, assuredly - as we have touched on the point.

Oʻzbek tilida aynan shu modal soʻzlariga oʻxshash modal soʻzlarni uchratamiz. Gapda ifodalangan fikrning aniqligi, realligini tasdiqlovchi modal soʻzlar: albatta, shubhasiz, shaksiz, haqiqatan, darhaqiqat, fikran va boshqalar.

Choʻlni obod qilish savob, albatta, qani, quda bolalarga fotiha beraylik. (A.Q.)

Haqiqatan ham yuragining gursullab urayotgani va oyoq qoʻllarining titragani sezilib turardi. (Oydin)

Soʻzsiz, shubhasiz, shaksiz kabi modal soʻzlar boshqalarning eʼtiroz, faraziga oʻrin qoldirmaydigan qatʼiy shakldagi tasdiqni, zaruratnibildiradi:

Zokir ota, shubhasiz, juda tajribali paxtakor, qoʻli gul odam.

2) taxmin, gumon, shubhalanish, noaniqlik maʼnolarini anglatuvchi modal soʻzlar:

maybe - ehtimol, mumkin, balki, chamasi; perhaps - shekilli, hoynahoy, chamasi; possible — mumkin, ehtimol, eʼtirozsiz; probably – ehtimol, balki, chamasi; apparently – chamasi, aftidan, ...sa kerak

Perhaps some one might feel for you, - said the younger man laughing.  
(H.James)

They are probably two of my late aunt's daughters. (I bid). May be he is here.  
(Kipling). Very possible, said his companion (H.James).

Oʻzbek tilida taxminiy fikr, gumon, noaniqlik ekanini bildiruvchi, ingliz tilida semantik guruhga mos tushadi. Ular: ehtimol, chamasi, shekilli, aftidan, haytovur, chogʻi kabilar. Bu sayohat juda maʼqul keldi shekilli, Umarali bortga yonboshlab, allaqanday bir kuyni xirgoyi qila boshladi. (A.K). Xotin yaktakni olib yoniga qoʻydi, aftidan, hozir tikmoqchi emas edi. (A.K). Haytovur, ishimiz chakki emasga oʻxshaydi. (0.).

3) Soʻzlovchining biror voqeaga boʻlgan subyektiv bahosini bildiruvchi modal soʻzlar. Bu soʻzlarning antonim maʼnoni anglatuvchi oppozitsiyalari mavjud.

happily – yaxshiyamki, baxtinga

unhappily - baxtga qarshi, aksiga

luckily - baxtinga, omadimga, qarangki, yaxshiyamki

unluckily – baxtga qarshi, aksiga

fortunately – baxtinga, yaxshiyamki, omadni qarangki

unfortunately - baxtga qarshi, aksiga

Fortunately there are always more jokes, the ugly young man remarked.  
(H.James)

The husband of the elder Lord Haycock was very good fellow, but unfortunately a horred tory. (Ibid)

Ingliz tilida yana gapiruvchining voqealikka bo‘lgan xohish-istak kabi ma’nolar ifodalaydigan modal so‘zlar guruhi mavjud:

desirable - ko‘ngilga molik, xush ko‘rmoq

undesirable - xush ko‘rmaslik, ma’qul bo‘lmaslik.

happily - xursandona, vaqtchog‘lik

unhappily - g‘amgin, alamli, noxush, ayanchli

luckily - omadli, baxtli, ishi yurishmoq

unluckily – baxtga qarshi, omadsiz, ishi yurishmagan

fortunately – baxtimizga, taqdirimizga, yaxshiyam

unfortunately – baxtga qarshi.

O‘zbek tilidagi modal so‘zlar ingliz tilidagi modal so‘zlarga ko‘p ma’nolik, sinonimiya xususiyatlari bilan mos keladi. Biz aynan har bir modal so‘zni semantik maydonlari taqqoslamochi emasmiz. Bu tajriba nazariyasi va amaliyoti fanining obyektidir. Biz o‘zbek tilida ajratilgan modal so‘zlar guruhini e’tiborga havola qilyapmiz. Yuqoridagi 3 ta semantik guruhdan tashqari modal so‘zlar guruhini yana davom ettirishimiz mumkin. Shunga ko‘ra:

4) Biror vaqea – hodisadan afsuslanish kabilarni bildiruvchi modal so‘zlar: afsuski, attang, ajabo kabi. Masalan: Attang... shunday dolzarbvaqtda eng yaxshi brigaderimiz yotib qoldi-da. (A.K.). Ajabo, shu o‘zimizni Saodatmi? (G‘.G‘.).

5) Fikrning o‘zaro munosabatini va tartibini bildiruvchi modal so‘zlar: demak, xususan, aksincha, masalan, jumladan, chunonchi, binobarin, xullas, avvalo kabi. Bu modal so‘zlarning ko‘pligi ingliz tilida o‘z ekvivalentlariga ega.

Demak, xullas, masalan, jumladan, umuman, chunonchi kabi modal so‘zlar fikrni umumlashtiradi, uning xulosasini bildirish, yana dalillar keltirish singari ma’nolarni bildiradi: Xullas, uning uyida allaqachon yangi gaplar ko‘paymoqda edi. (A.Q.). Maqtashga loyiq kishilar ham oz emas bizda, masalan, Tansiq Ahmedov, Sobir Ermatov ishlarini ko‘rsang, yuraging quvonchga to‘ladi. (O).

Binobarin, xususan, aksincha modal soʻzlari fikr oqimini, biror fikrni taʼkidlash, ajratib koʻrsatish, birini rad etib, ikkinchisini tasdiqlash kabilarni bildiradi. Ingliz tilida bu modal soʻzlarga thus, especially, oppositionally, contrary kabilar mos keladi:

Binobarin koʻklamgacha javob berishingizni soʻrayman (Gʻ.Gʻ.). Nafisaxonning nazarida qizi yengiltak emas, aksincha, bamaʼni boʻlgan gaplari ham oʻrinli va qisqa. (Mirm.).

Avvalo (first of all) dastlab (first, firstly) kabilar modal soʻzlar oʻrnida kelib, fikrning tartibini bildiradi: Avvalo, rejalarni tuzataylik, keyin ishga kirishaylik. First we should make our plans, second we start our work.

Yuqorida koʻrsatilganlardan tashqari oʻzbek tilida lozim, mumkin, kerak soʻzlari ham modallikni ifodalashga xizmat qiladi. Biz bu haqda ingliz tilidagi modal feʼllar can, may, must va ularning ekvivalentlari haqida maʼlumot berib oʻtamiz. Garchi bu soʻzlarda modal soʻzlik xususiyati kam boʻlsada, bular xilma-xil modal munosabatlarni (zaruriyat, imkoniyat, mumkinlik, qatʼiylik kabi) bildiradi. Chol – aqlli odam, unga oʻrgantish ham mumkin, undan koʻp narsalarni oʻrganish ham mumkin. (O).

Ingliz va oʻzbek tillarida modal soʻzlar asosan gapning boshi va oʻrtasida kelishi kuzatilgan. Modal soʻzlarning oʻrni oʻzgarishi gapning umumiy maʼnosiga taʼsir qiladi. Masalan: Naturally, the children are behaving well while you are here. Bu gapda modal soʻz «naturally» gapning boshida kelgan. Gapiruvchining voqelikka munosabatini ifodalaydi. The children behave naturally. Ikkinchi gapda naturally leksemasi ish-harakatning holatini bildiradi.

Modal soʻzlar birikib frazema (ibora) hosil qiladi. Masalan: «Frankly, he hasn't got a chance» «Frankly» iborasi bir qancha ekvivalentlarga ega: to speak frankly, to put it frankly, frankly speaking, putting it frankly va boshqalar.

Modal feʼllarning maʼnosi butun bir gap bilan ifodalanishi mumkin. Bunda ular kirish soʻzlik funksiyasini kirish gapga aylantiradilar. Masalan:

- a) If I may be frank
- b) If I can speak frankly

c) I put it frankly.

Gapiruvchining mulohazasini ifodalash uchun ikkita modal fe'llar yonmayon keladi. Masalan: Saying, of course, nobody imagines that he will repay the loan.

Ingliz tilida quyidagi modal so'zlar aynan ko'p ishlatiladi: admittedly, certainly, definitely, indeed, surely, perhaps, possibly, in fact, actually, really, officially, superficially, technically, theoretically, fortunately, hopefully, luckily, naturally, strangely, surprisingly, however, therefore, more over.

Quyidagi ravishlar modal so'z o'rnida ishlatilib, ilmiy, badiiy matnlarda, og'zaki nutqida ko'plab ishlatiladi: untinely — прежде временно, unreservedly- откровенно, unhesitatingly – уверенно, trustingly – доверчиво, traditionally — по традиции, supposedly–предложительно, remarkably–удивительно, purely–исключительно, possibly–возможно, positively–положительно, philosophically – сточки зрения философии, personally–лично, perfectly – совершенно, particularly – особенно, morally – морально, mistakenly – ошибочно, luckily - к счастью, exaggeratedly – преувеличенно, dynamically – динамично, differently – различно aboshqalar.

Modal so'zlar yozma nutqda vergul bilan ajratiladi. Og'zaki nutqda esa pauza-ohangni uzilishi bilan ifoda etiladi. Masalan: Obviously, they expected us to be on time. Og'zaki nutqda: Obviously | they expected us to be on time.

Modal so'zlarning gapning o'rtasida kelishi ma'noni kuchaytirish yoki pasaytirish xususiyatiga ega. Masalan: He is definitely going to emigrate. So they really, really want him to be elected.

Agar gapiruvchi xabar yoki hodisaga urg'u qo'yib, ifodalikni ta'minlamoqchi bo'lsa, modal so'zlar gapning boshida keladi. Ular quyidagi funksiyalarni bajarib keladilar:

1) Yangi mavzu, fikr, g'oyaning o'rta tashlanishini. Masalan: Well, now, good kabi so'zlar gapning boshida keladi. Masalan: - You, remember that puppy we found,

- Well, we adopted it, and now it has some puppies of its own. Bu gapda well aytmoqchi ma'nosida kelib, eshituvchini yangilikdan xabardor qilish uchun ishlatilgan, ya'ni I am now going to tell you something new.

Biror shaxs yoki kimsaning fikrini bilish uchun. Masalan: what do you think of a crisis? Well. I don't think it is quite as serious as it seems.

Now odatda eski reja, fikr muammo, g'oyaga qaytish, esga olish kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Masalan: Now, what was the other things we wanted to discuss.

Bahs munozarali fikrlarda besides, in anycase, anyway ishlatiladi. Ular gapiruvchining fikrlari ustunliginni ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan: I won't be coming to the football game this afternoon. I have some work to do in the garden. Besides, if they play badly this time as they did last week.

Fikrni kengaytirish yoki aniqlash maqsadida that is, that's to say fikrni kengroq ifodalash uchun namely, fikrni misollar bilan boyitishda for instance ishlatiladi. Masalan: It is important that young children should see things, and not merely read about them. For example, it is valuable experience to take them on a trip to a farm.

Modal so'zlar asosan quyidagi sintaktik funksiyani bajaradi.

1. Dialoglarda avval aytilgan fikrga munosabatini ifodalab, so'z-gap vazifasida keladi.

- Uchuvchilik bizning ishimizdan ham og'ir shunday emasmi?

- Albatta (Oydin).

Ingliz tilida taqqoslang.

- Can you imagine yourself as a newspaper correspondent?

Why of course. I like writing articles for the school newspaper.

- «Oh, that's a new bicycle you've got there!»

- «Yes, dad bought it for me yesterday»

Kirish so'z vazifasida keladi: Sharofat yerga qaragancha o'tirar, aftidan bu savolga javob bermoqchi emas edi. (A.K.)

- In fact it is quite impractical...(Oscarwild)

- Why, what a wonderful piece of luck. (Oscarwild)



Moreover, it was not the classics themselves as much as the works of Italy and France.

Holbuki, sen bu to'g'rida gapirmagan eding.

So'zlovchi bayon qilayotgan fikrga turlicha munosabatini ifodalash uchun kirish so'z va kirish birikmalardan foydalanadi. Masalan:

Today the weather is clearing – Bugun havo ochilib ketadi.

Today weather is certainly clearing. – Bugun havo albatta ochilib ketadi.

May be, today the weather is clearing.- Balki, bugun havo ochilib ketadi.

Birinchi gapda fikr oddiy xabar berish shaklida bo'lsa, ikkinchisida so'zlovchi havoning ochilib ketishiga qat'iy ishonch bildiradi, uchinchi gapda esa havoning ochilib ketishiga gumon va ishonchsizlik bilan qaraydi.

Ba'zan butun bir gap vazifasini bajarishi mumkin. Harqalay, biz dengiz ostiga ketayapmiz, shu rostmi. (Mirm.). Lima, the city founded by Pizarro, has the reputation of being the handsomest city in South America.

Ingliz tilida modal fe'llar qo'shma fe'l kesimning modal komponenti vazifasida keladi. Masalan: I could not go to the theatre yesterday because I was busy.

O'zbek tilida modallashgan fe'llar kesim vazifasida keladi. Masalan: Turg'unoy peshonasini ikki bilagi ustiga qo'yib yig'lab o'tirardi. (A.Q.). Malohat erining bu yurish-turishidan uyalib yurardi.

### **XULOSA.**

Demak, aytilgan fikrlardan va har ikkala tilda keltirilgan misollardan qisqacha xulosa qiladigan bo'lsak, modallik juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, modal ma'no ifodalaydigan modal so'z va fe'llar orqali ifodalanadi. Modal ma'nolar har ikki tilda ham har bir gapning muhim konstruktiv belgilaridan biri hisoblanadi, ingliz va o'zbek tillarida alohida so'zlar borki, ular modal so'zlar nomi bilan yuritiladi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Falsafiy qomusiy lug‘at. T.: 2004. b. 273
2. J.B.Bo‘ranov. Ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent, «O‘qituvchi» 1973 b. 350
3. J.Bo‘ranov, O‘.Hoshimov, X.Ismatullaev. Ingliz tili grammatikasi. Toshkent, «O‘qituvchi» 1974y. b. 360
4. SH. Rahmatullaev. O‘zbek va rus tillarini qiyoslash. Toshkent, «O‘zbekiston», 1993 y.
5. F.R.Palmer, Mood and modality. Cambridge University Press, 1986 p. 250